



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



tavsiyalar ushbu yondashuvning real samaradorligini tasdiqlaydi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni til ta'limiga ongli va metodik asosda integratsiyalash nafaqat o'quvchilar natijadorligini oshiradi, balki zamonaviy o'qituvchi rolini ham qayta belgilaydi. AI til o'rgatishda yordamchi emas, balki hamkorlik qiluvchi vosita sifatida talqin qilinishi lozim. Kelajak til ta'limi sun'iy intellekt bilan insoniy tajriba sinergiyasiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kembrij Universiteti Noshriyoti. (2023). Til ta'limida sun'iy intellekt. Kembrij nashriyoti.
2. Vygotskiy, L. S. (1978). *Jamiyatdagi ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi*. Garvard universiteti nashriyoti.
3. Puentedura, R. R. (2014). *SAMR va TPCCK: Sinfidagi amaliyotga qo'llaniladigan yondashuv*. Hippasus nashriyoti.
4. Mishra, P. va Koehler, M. J. (2006). Texnologik-pedagogik mazmuniy bilim: O'qituvchi bilimi uchun konseptual model. O'qituvchilar kolleji jurnali, 108(6), 1017–1054.
5. Stokvell, G. (2012). Kompyuter yordamida til o'rganish: Tadqiqot va amaliyotdagi xilma-xillik. Kembrij Universiteti Noshriyoti.
6. Yilmaz, R. M. va Yilmaz, F. G. K. (2020). Til ta'limida o'quv tahlillari va sun'iy intellekt: Tizimli sharh. Ta'lim texnologiyalari bo'yicha tadqiqot va rivojlanish, 68(5), 2461–2489.

ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH

Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

zuxraxonumurzakova@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0665-1663

Annotatsiya

Ushbu maqola ona tili darslari uchun interfaol o'quv materiallarini yaratishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasini tadqiq etadi. O'quvchilarning faolligi va moslashtirilgan ta'limni alohida aniqlashtirib berishda multimedia taqdimotlari, ta'lim ilovalari va virtual o'quv muhitlari kabi vositalar orqali tilni qanday qilib o'zlashtirishni yaxshilashga turtki beradigan jarayonni yoritadi. Tadqiqot konstruktiv ta'lim nazariyalariga asoslangan bo'lib, texnologiyaga asoslangan ta'limiy jarayonda o'quvchilarning birgalikda faol va tirishqoqlik bilan yodlashishiga zamin yaratib beradi. Bunday raqamli interaktivlik orqali o'quvchilarning bilimlarini oshiribgina qolmasdan, balki ularning lingvistik, kognitiv yondashuv asosida motivatsion faolligini rag'batlantirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, elektron manbalarni qo'llash madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda tilga bo'lgan qiziqishni yorqin va estetik tomondan jozibali qiladi. Maqolada keltirib o'tilgan materiallar nafaqat nazariy natijalarni yaxshilash, balki rivojlanib borayotgan asrda o'ziga xos bo'lgan qulaylikni yaratib beradi degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ona tili ta'limi, elektron resurslar, hamkorlikda o'rganish, til hodisalari.



Аннотация

В статье рассматривается интеграция цифровых технологий при создании интерактивных учебных материалов для занятий по изучению языка наследия. В ней представлен процесс, в котором особое внимание уделяется вовлечению учащихся и персонализированному обучению, поощряя их к более эффективному усвоению языка с помощью таких инструментов, как мультимедийные презентации, образовательные приложения и виртуальные учебные среды. Исследование основано на конструктивистских теориях обучения и закладывает основу для совместного активного и внимательного обучения студентов в рамках технологического учебного процесса. Благодаря такому цифровому взаимодействию можно не только повысить уровень знаний студентов, но и стимулировать их мотивационную активность на основе лингвистического и когнитивного подхода. Кроме того, использование электронных ресурсов делает изучение языка живым и эстетичным, обеспечивая при этом сохранение культурной идентичности. Делается вывод, что материалы, о которых идет речь в статье, не только улучшают теоретические результаты, но и создают удобство, не имеющее аналогов в развивающуюся эпоху.

Ключевые слова: цифровые технологии, обучение родному языку, электронные ресурсы, совместное обучение, доступность языка.

Abstract

This article examines the integration of digital technologies in the creation of interactive learning materials for heritage language classes. It presents a process that emphasizes student engagement and personalized learning, encouraging learners to enhance language acquisition through tools such as multimedia presentations, educational applications and virtual learning environments. The research is based on constructivist learning theories and provides a basis for students to learn together in an active and attentive way in a technology-based learning process. Through such digital interactions it will be possible not only to increase students' knowledge but also to stimulate their motivational activity based on a linguistic and cognitive approach. Moreover, the use of electronic resources makes language learning lively and aesthetic, while ensuring the preservation of cultural identity. It is concluded that the materials referred to in the article, in addition to improving the theoretical results, create a convenience that is unparalleled in the developing age.

Keywords: digital technologies, mother tongue education, electronic resources, collaborative learning, language accessibility.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi interfaol o'quv materiallarini yaratish uchun o'ziga xos imkoniyatlarni taqdim etish orqali ona tili ta'limi ko'rinishini yangidan rivojlantirib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari butun dunyo bo'ylab universitetlar va boshqa ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida elektron dasturiy ta'minot vositalarining ona tili ta'limiga integratsiyalashuvi o'quvchilarning faolligini oshirish va tilga oid bo'lgan bilimlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishi sifatida tatbiq etilmoqda. Ona tilini o'rganishda raqamli zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy maktab o'quvchisining ishtiyoqini oshiradi, uning kognitiv qiziqishi va mustaqilligini rag'batlantiradi[1]. Pedagogika va texnologiyaning o'zaro uyg'unlashuvi an'anaviy didaktik yondashuvlardan chetlanadigan interfaol o'quv materiallarini yaratilishiga keng imkoniyatlarni namoyon qilib berdi. Raqamli vositalar, xususan, multimedia taqdimotlari, o'yinlashtirilgan o'quv platformalari, kengaytirilgan reallik ilovalari va virtual



sinf xonalarining yaratilishi o'quvchilarning tubdan o'zgartirilgan ta'limiy jarayonlardagi kontent munosabatlarini yaxshilab berdi. Til o'rganishdagi muhitda samaradorlikni kuchaytiradigan ushbu vositalar faqatgina faol o'quvchini rag'batlantiribgina qolmasdan, balki turli ko'rinishdagi tilni o'rganish usullarini va kognitiv bilimlarni shakllantirishda o'zlashtirishi bir muncha orqada qolgan o'rganuvchilarni ham jalb etishdagi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv maqsadlariga mos keladigan qiziqarli va kontentga boy bo'lgan o'quv muhitini yaratish mumkin, shu bilan birga, tanqidiy fikr yuritish, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga turtki beradi.

Texnologik jarayonlarning to'xtovsiz rivojlanishi va raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatining oshib borilishini taqozo etadi. Buni inobatga olgan holda keyingi yillarda dasturiy ta'minotga qaramlikni yanada shiddat bilan oshib borilishiga guvoh bo'lish mumkin: an'anaviy ona tili ta'limi o'zaro aloqalarda va ta'limda fikrni samarali yetkazib bera oladigan gibridd modellar bilan almashinuviga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni til ta'limiga integratsiyalashuvi so'nggi yillarda katta e'tibor qaratildi va ularning ta'sirini baholovchi tadqiqotlar paydo bo'ldi. Tadqiqotlar :miy ravishda raqamli vositalar orqali interaktiv tajribalarni taqdim etish orqali til o'rganishni yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi. Shvetsiyada o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan shaxsiy hayotlarida tez-tez foydalanadigan ona tili o'qituvchilari ularni o'z o'qitish amaliyotiga ko'proq integratsiyalashadi, bu esa ko'proq interfaol va ishtirokchi ta'lim muhitiga olib keladi[2]. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ona tili o'qituvchilari ta'limiy dasturlardan kundalik hayotlarida foydalanibgina qolmasdan, balki uni o'quv muhitiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars jarayonida elektron qurilmalardan foydalanish orqali mavzuning qiziqarli va rang-barangligini saqlab qolish, o'quvchining tushunish qobiliyatiga ko'maklashish, darsni estetik tomondan tashkillashtirishda katta natijalarga olib kelishga zamin yaratadi. Eng asosiy o'rinda, ona tili darslarini elektron qurilmalar vositasida olib borishdan maqsad shuki, ta'lim oluvchilarning erkin fikr yurita olish, o'z ustida samarali ish olib borishni rag'batlantirish, muammolarni keltirib chiqargan yechimlarni izlab topishga yo'naltirilgan. Raqamli vositalar til va madaniy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tahlil qilish, xulosalar chiqarish va samarali muloqot kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni ona tili ta'limiga integratsiyalashuvi pedagogik amaliyotdagi paradigma o'zgarishlarini aks ettiruvchi keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Neuman tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli sharhda yigirma yil davomida nashr etilgan 89 ta empirik tadqiqotlar tahlil qilindi, ular erta bolalik tili va savodxonlik ta'limiga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar, xususan, elektron kitoblar va interaktiv ilovalar yosh bolalarning til rivojlanishini yaxshilashda samarali bo'lib, 53 ta tadqiqotdan 34 tasida ijobiy natijalar qayd etilgan[3]. Tadqiqotlardan shuni



tushunish mumkinki, o'quvchilarda tilga oid bilimlarni o'zlashtirilganligi – bu xatolardan xoli bo'lgan holda yozish hamda so'zlash layoqati, balki nutqiy vaziyatlarda o'z mulohazalarini aniq, izchil ravishda, bir tekisda ifodalay olish salohiyatidir. Hozirgi kunda o'quvchilarning til savodxonligi darajasi turlicha bo'lib, bunga ular har xil elektron vositalardan foydalanish orqali turli natijalarga erishishlari mumkin. Ona tili darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning kelajagi uchun juda muhim. To'g'ri yozish va ravon so'zlash hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyat kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Varschauer ta'kidlaganidek, raqamli vositalar mazmunli o'qitishni qo'llab-quvvatlovchi va o'quvchilarning bilimini oshiradigan samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Texnologiya intellektual va ijtimoiy kuchaytiruvchi rol o'ynaydi va o'quv dasturiga samarali integratsiyalashganda o'rganish imkoniyatlarini oshiradi[4]. Texnologiya rivojlanib borayotgan dunyoda qulay sharoitlarni taqdim etibgina qolmasdan, inson va jamiyat hayotiga oid intellektual ko'rinishlarning ravnaq topishiga ham ta'sir ko'rsatadi. U maorif tizimidan boshlab maishiy turmush tarziga bo'lgan hamma sohalarda ta'sir o'tkazuvchi vosita singari namoyish etib kelmoqda. Shu bilan birga, ushbu keltirib o'tilgan yutuqlarga qaramay, raqamli texnologiyalarni samarali integratsiyalashda muammolar saqlanib qolmoqda.

Tondeur va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar, asosan, yozish, nutq va lug'at ko'nikmalarini yaxshilash uchun ishlatiladi, ammo haqiqiy sinf ilovalari cheklangan. O'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi va resurslardan foydalanish kabi omillar til ta'limida texnologiya integratsiyasi darajasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi[5].

Ona tili ta'limi jarayonida raqamli texnologiyalar va sinfiy ilovalar muhim rol o'ynaydi. Biroq, ulardan foydalanishda ma'lum bir chegara to'siqlarga ham duch kelish mumkin. Til ta'limida sinfiy ilovalardan foydalanishning chegaralanganligi quyidagi asosiy muammolarga bog'liq bo'lishi mumkin:

Internet tarmog'i va qurilmalar yetishmovchiligi – aksariyat hududlarda barqaror internet aloqasi yoki yetarli darajada zamonaviy qurilmalar mavjud emasligi sababli ilovalardan to'liq foydalanish qiyinlashadi.

Ilovalarning mos kelmasligi – ba'zi sinfiy ilovalar barcha boshqaruv tizimlarida yoki barcha turdagi qurilmalarda yaxshi ishlamaydi.

Mavjud cheklovlarning, qisman bo'lsa-da, ta'siri darsning samaradorligi va bilim olishga bo'lgan rag'batni cheklashga olib keladi. Biroq raqamli tafovut va madaniy jihatdan mos tarkibga ehtiyoj kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Dunyo aholisining qariyb 40 foizi o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyatiga ega emas. 2030-yilga borib raqamli texnologiyalar til ta'limining yanada ajralmas qismiga aylanadi, ta'lim mazmunining taxminan 70 foizi raqamli platformalar orqali yetkaziladi. Chunki raqamli savodxonlik global miqyosda oshib, onlayn tilshunoslikdagi bo'shliqni to'ldirishi mumkin.

Tadqiqot davomida INSERT hamda kuzatuv-tahlil metodlari asosida ilmiy yondashuvlar amalga oshirildi. Ushbu metodlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad – elektron dasturiy ta'minot vositalari yordamida ishlab



chiqilgan interaktiv o'quv topshiriqlarining ona tili darslaridagi samaradorligini ko'zdan kechirish hamda qanday qilib o'quvchilarning aktivligini saqlab qolgan holatda nazariy va amaliy bilimlarini yanada kuchaytirishdan iboratdir.

Mana shu o'rinda INSERT metodi haqidagi aniq va ilmiy ma'lumotni keltirib o'tilishi lozim bo'ladi. **INSERT** — bu ingliz tilidagi *Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking* iborasining qisqartmasi bo'lib, **“Faol o'qish va fikrlash uchun interaktiv yozuv tizimi”** degan ma'noni anglatadi. Ushbu metod 1980-yillarda amerikalik pedagoglar **Vogt va Echevarria** tomonidan ishlab chiqilgan va u o'quvchilarni matn bilan **mustaqil va faol ishlashga**, o'z fikrlarini belgilash va tahlil qilish orqali **tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga** qaratilgan. Metodning asosiy maqsadi:

- o'quvchilarni matnni passiv o'qishdan faol o'qishga o'tkazish;
- o'qish vaqtida miya ravishda o'z bilimlarini tahlil qilish;
- tushunishni nazorat qilish;
- mavzuni o'zlashtirish darajasini oshirish imkonini beradi.


INSERT metodining afzalliklari:

- tanqidiy fikrlab tahlil qilishni rag'batlantiradi;
- o'quvchilar bilimlarini kuzatish, baholash va yangilash orqali metakognitiv malakalarini oshirib boradilar;
- dars mashg'ulotlaridan boshqa vaqtda ham yangi materiallarni mustaqil o'rgana olish ko'nikmasini shakllantiradi.



1-rasm





2-rasm

Yuqoridagi tasvirda aks etgan matnlardan foydalanishdan avval o'qituvchi INSERT metodining amaliy qo'llanilishi haqidagi bilimlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Buning uchun quyidagi amallarni ketma-ketlikda bajarilishi kerak:

- o'qituvchi o'quvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan matnni taqdim etadi;
- o'quvchi har bir paragraf yoki fikrga nisbatan belgilarni qo'yib boradi;
- belgilar asosida tahlil jadvali tuziladi va muhokamalar olib boriladi;
- o'qituvchi belgilarga asoslanib, qaysi joy tushunarsiz bo'lganini izohlab beradi. (Qarang: 1-2-rasm).

O'quvchilarga belgilar tushuntirilgan jadval tarqatiladi:

BELGILAR	MA'NOSI
✓	<i>Buni ilgari bilganman</i>
☐	<i>Yangi ma'lumot</i>
☐	<i>Tushunmadim, savolim bor</i>
☐	<i>Ilgari bilganimga zid</i>


O'quvchilarning qanchalik darsda faol qatnashganligi, savollarga ijodiy tomondan erkin javob bera olishligi kuzatiladi va baholanib boriladi. Shuningdek, o'qituvchining AKT qurilmalaridan erkin tarzda foydalana olishligi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Natijalar grafik va jadvallar orqali tahlil qilindi.

Natijalar:

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ona tili darslariga elektron mobil ilovalarning ta'limiy natijalarni amalga oshirishda sezilarli darajadagi ta'sirini ko'rsatib bermoqda. Raqamli vositalarning ona tili darslariga olib kiritilishi o'quvchilarning ishtiyoqi va faolligi hamda aqliy barkamolligi oshganligidan darak bermoqda. O'tkazilgan amaliy tajribaga ko'ra, samaradorlik ko'rsatkichlari shuni ma'lum qilmoqda:



- yuqori ko'rsatkichdagi o'quvchilarning bilim salohiyatidagi natijalari (27% edi) va amaliy sinov tajribalari (37 %) oraliqdagi ko'rsatkich 10 % ga oshgan;
- o'rta ko'rsatkichdagi o'quvchilarning bilim salohiyatidagi natijalari (43 % edi) va amaliy sinov tajribalari (50 %) oraliqdagi ko'rsatkich 7 % ga oshgan;
- quyi ko'rsatkichdagi o'quvchilarning bilim salohiyatidagi natijalari (30 % edi) va amaliy sinov tajribalari (13 %) oraliqdagi ko'rsatkich 17 % ga kamaygan.



Yuqorida ko'rsatib o'tilgan natijalarni tahlil qilib shuni anglash mumkinki, elektron qurilmalardan va dasturiy ta'minot vositalaridan o'quv mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarda lingvistik bilimni oshirishga imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilarda ko'tarinki kayfiyat va shijoatni ham rivojlantirib beradi va darsning qiziqarli olib borilishiga turtki beradi. Umuman olib qaralganda, natijalar ona tili darslarida raqamli elektron vositalarning roli va ahamiyati haqida ma'lumot keltirib o'tadi. Raqamli resuslar va internet kuchining rivojlanishi ta'limning o'sib borishida salmoqli o'rin egallaydi. Raqamli texnologiyalarning ona tili darslariga jalb etilishi cheksiz imkoniyatlar hamda salbiy muammolarning ko'rinishini ham namoyish etib boradi.

Ta'limni takomillashtirish – raqamli texnologiyalar interaktiv usullar va o'quvchilarni to'liq o'ziga jalb qilish va ularning diqqatini butunlay qarab olish orqali ona tili darslarida olingan natijalarning sezilarli tarzda oshganini ko'rsatilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va lingvistik tafovutni hal qilish – raqamli ta'minotlarning afzal jihatlariga qaramasdan, raqamli yetishmovchilik ham muhim muammoligini saqlab qolmoqda.

Kelajakdagi taraqqiyot yo'nalishi – kelgusi yillarda raqamli texnologiyalar asosida ona tilini o'rganish tobora o'z kuchini saqlab qolishi mumkin. Texnologiyalar rivojlanishda davom etadi, bu esa ona tilidagi lingvistik bilimlarni o'rganishdagi bo'shliqlarni bartaraf etadi va til o'rganuvchilar uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, raqamli vositalarga qaramlikni iqtisodiy tomondan bataraf etish hamda raqamli resurslardan barcha ta'limiy tashkilotlarda va umumta'lim maktablarida foydalanishni keng joriy etish muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.



Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, til ta'limida elektron qurilmalardan inetgratsiyalashgan holatda darsni tashkil etilishi tilni imkoniyatlarini bilib borish, madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy qamrab olishni jadallashtirish uchun moslashuvchan imkoniyatni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot interaktiv, maxsus moslangan yoki individual o'ziga xoslik qo'shilgan va foydalanish imkoniyati joiz bo'lgan tajribani ta'minlash, til o'rganishdagi kamchiliklarga barham berish uchun raqamli dasturlarning imkoniyati va bilimga yo'naltirilgan salohiyatni ko'rsatib beradi. Natijalar raqamli vositalardan foydalanish uchun ma'lum bir iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etishdagi muammolarni hal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Hamda pedagoglar ushu ta'lim jarayonlarida raqamli unsurlardan adolatli tarzda yondashmoqliklari keraligi ta'kidlanadi. O'quvchilarning aqliy jihatdan intellektual rivojlanishida, ayniqsa, ko'z bilan ilg'ab, eshitish salohiyatini rivojlantirib, rang-baranglikni ko'rsata bilish orqali haqiqiy kognitiv bilimga erishishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzoqova M.A. Raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta'limini modellashtirish va tashkil etish mexanizmlari. "Экономика и социум" №12(127)-1. 2024. www.iupr.ru.
2. Moinian, F., Kjällander, S., & Dorls, P. (n.d.). Mother tongue language teaching with digital tablets in early childhood education: A question of social inclusion and equity. Retrieved from <https://www.hekupu.ac.nz/sites/default/files/2017-10/Mother-tongue-language-teaching>.
3. Neumann, M. M. (2020). The Use of Digital Technologies to Develop Young Children's Literacy Skills: A Systematic Review. *SAGE Open*, 10(2).
4. Warschauer, M. (2006). Laptops and Literacy: Learning in the Wireless Classroom. Teachers College Press.
5. Tondeur, J., Van Braak, J., Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2021). Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education: a systematic review of qualitative evidence. *Educational Technology Research and Development*, 69, 265–290.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/HGOW5783

HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR

Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

yulduz1999.09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanishning muhim o'rni haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bu texnologiyani o'quvchilarda shakllantirish uchun yaratiladigan mashq va topshiriqlarda qaysi yondashuvlarga tayanish kerakligiga :r tavsiyalar ko'rsatilgan. Har bir yondashuv mazmunidan kelib chiqqan holda ayrim topshiriqlar tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, kompetensiya, subyekt-subyekt, integratsiya, xalqaro baholash dasturlari.



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

